

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AVIATSIYA
TALABALARI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SUN'IY
INTELLEKT ORQALI RIVOJLANTIRISH**

ERGASHALIYEVA DILSHODA BAXROMJON QIZI

Mustaqil tadqiqotchi

ergashaliyevadilshoda8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda AI speech botlarning kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari, ta'lim jarayoniga integratsiyasi va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, aviatsiya sohasida xalqaro kommunikatsiya talablariga mos kompetensiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI speech bot, aviatsiya ta'limi, kommunikativ kompetensiya, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv.

Abstract. This article examines the development of aviation students' communicative competence based on artificial intelligence technologies in the context of digital transformation. The study analyzes the pedagogical potential of AI speech bots in developing professional communication skills, their integration into the educational process, and the effectiveness of their application. It also substantiates modern approaches to developing competencies that meet the requirements of international communication in the aviation field.

Keywords: artificial intelligence, AI speech bots, aviation education, communicative competence, digital transformation, innovative technologies, pedagogical approach

KIRISH

So'ngi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, chatbotlar, virtual yordamchilar va AI speech botlar o'quv jarayonini individuallashtirish, tezkor fikr-mulohaza taqdim etish hamda talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tadqiqotchilarning diqqat e'tiborini tortayotgan masalalar orasida ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda foydalanilyotganligi, AI texnologiyalari esa talabalarning erkin muloqatga kirishishiga, nutqiy faoliyatini takomillashtirishga yordam beryotganligi tufayli dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ma'lumki, Z.S. Ergasheva, tadqiqotlarida

sun'iy intellekt raqamli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish bu esa ayniqsa xorijiy tillarni o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yordam berganligi isbotlab berilgan. S.K.Barakayeva raqamli transformatsiya va zamonaviy talimni xorijiy tillarni o'qitishdagi ahamiyatini o'rgangan. Tadqiqot davomida muallif raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt hamda masofaviy talimni jarayonlari talabalarning til o'rganishida hamda ularni tilga o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tahlil qilgan. Sun'iy intellekt hamda AI chatbotlardan foydalangan talabalarda muloqotga tayyorlik oshgan, nutqiy xavotirni kamaytirishga erishildi. Yuqoridagi olimlar bayon qilgan yondashuvning afzalliklari qatoriga mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda individual ta'lim jarayonini tashkil etishini kiritish mumkin. Biroq, sun'iy intellekt orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish to'g'risidagi masalani hal qilishga bo'lgan yondashuv faqatgina umumiy ta'lim va xorijiy tillarni o'qitish kontekstida ko'rib chiqilgan bo'lib, aviatsiya sohasidagi talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yo'naltirilgan imkoniyatlarni toraytirib yuboradi.¹

Tadqiqotning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

Sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan AI speech botlarning aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarni tahlil qilish, xususan erkin muloqotga kirisha olishiga, aviatsiya sohasidagi terminlardan muloqat jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llay olishi kabi imkoniyatlarini tahlil qilish va ta'lim AI texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash istiqbollari asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun oldimizga quyidagi vazifalarni qoyamiz:

- mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rganish;
- chat botlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilish; ularni aviatsiya ta'limida qo'llashning afzalliklarini aniqlash.

ASOSIY QISM

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan avval ham olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, L.Shuppe, V.Koval, H.Sotska, O.Trynus va A.Melnyk kabi olimlar raqamli texnologiyalarni oliy ta'lim muassalarida foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga hamda kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam berishini isbotlab berishgan. Tadqiqot jarayonida speech botlarni ta'lim sohasi uchun naqadar samarali hamda zamonaviy usul ekanligi isbotlab berilgan. Biroq, ushbu tadqiqotda aynan aviatsiya sohasidagi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish to'g'risida ish olib borilmaganligi

³ Shuppe L., Koval V., Sotska H., Trynus O., Melnyk A. Communicative Competence of Future Specialists in the Information and Digital Educational Environment. Amazonia Investiga. – 2024. – P. 188–200.

⁴ Usmonov B. Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning Education Journal. — 2024. P. 56

aniqlandi. B.Usmonov Oliy Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini takomillashtirish, masoviy ta'lim jarayonini rivojlantirishni tadqiq qilgan. Muallif raqamli texnologiyalardan ta'lim sifatini yaxshilash, ta'lim resurslaridan talabalarning unumli foydalanishi hamda zamonaviy ta'lim muhitini yaratish muhim omil ekanligini o'rgangan. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarning barchasida AI speech botlari orqali xorijiy tillarni talabalarga qaday samarali tarzda o'qitishda foydalanilgan bo'lsada, lekin aviatsiya talabalarning AI speech botlar orqali kasbiy kommunikativ rivojlanishini alohida obyekt sifatida o'rganib chiqilmagan.

Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan yondashuvning yangiligi AI speech botlardan umumiy ta'limda emas, balki aynan aviatsiya sohasidagi talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda foydalaniladi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishni taminlovchi metodlar jumlasiga adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil kuzatish va umumlashtirish metodlari kiradi. Masalan, AI speech botlari orqali pilot-dispecher muloqoti, yo'lovchilar bilan xizmat muloqoti, favqulotda axborot almashinuv muloqotini, aviatsiya sohida oid terminlarni togri qo'llashva xatolar ustida ishlashni modellashtirish mumkin.

1-jadval. AI speech botlardan foydalanish orqali aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli

No	Kommunikativ vaziyat	AI speech bot vazifasi	Ta'limiy natija	Baholash me'zoni
1	Pilot- dispecher aloqasi	Dialoglarni modellashtirish	Kasbiy muloqot ko'nikmasi shakllanadi.	Tog'ri terminlardan foydalanish, nutq aniqligi
2	Yo'lovchilar bilan muloqot	Interaktiv suhbat tashkil etish	Xizmat ko'rsatish kompetensiyasini shakllantirish	Muloqot madaniyati; Ravonlik, tinnglovchiga moslashuvchanlik
3	Favqulotda vaziyatlar	Vaziyatli topshiriqlar yaratish	Tezkor va aniq muloqotni malakasini rivojlantirish	Qaror qabul qilish tezligi, javob aniqligi
4	Aviatsion terminologiya	Terminologik mashqlar	Kasbiy lug'at boyligi kengayadi.	Terminlardan togri foydalalnish stressga chidamlilik

2

Yuqoridagi jadval aviatsiya talabalarining qanday qilib kommunikativ kompetensiyasini AI speech botlari orqali rivojlantirish mumkinligini korsatib beradi.

⁵ Muallif tomonidan adabiyotlar tahlili natijasida tayyorlandi ishlanmasi.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, AI speech botlaraviatsiya talabalarini professional muloqatga kirishishiga sohasiga oid terminlardan to'g'ri foydalana olishiga yordam beradi. Shuningdek ushbu texnologiyalar talabalarga o'sha vaqtning ozida botlardan fikr mulohaza olishga, nutqdagi xatolarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi. AI speech botlari kabi raqamli texnologiyalar yordamida talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga erishadi.

Xulosa

Demak, xulosa qilib AI speech botlarning kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishimiz mumkin. Talabalar uchun AI speech botlaridan ovozli muloqatni samarali tashkil etish kerak. Talabalar nuqtidagi xatolarni aniqlab botlar hamda ustozlar bilan birgalikda tahlil qilish kerak. Kasbiy ssenariylar asosida muloqatni shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam berish kerak. Talabalarga ozini ozi baholash ko'nikmalarini shakllantirishi kerak.

Natijada, AI speech botlardan foydalanish talabalarining kommunikativ faolligini oshirishga, kasbiy muloqotga tayyorgarligini kuchaytirishga hamda kelajakdagi professional faoliyatida samarali muloqot olib borishiga xizmat qiladi. Ushbu masalaga birinchi navbatda MDH mamlakatlari va Xitoy ta'lim muassalarida sun'iy intellekt chat botlaridan talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda tadqiqot amalga oshirilgan bo'lib, biroq O'zbekistonda aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini AI speech botlari orqali rivojlantirish bo'yicha deyarli hech qanday tadqiqot ishlari mavjud emas. Keltirib o'tilgan tadqiqot ishlari ta'lim sohasida talabalarining sun'iy intellekt orqali kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishini o'zining katta hissasini qo'shgan, biroq aviatsiya sohasi talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishi dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wang F., Cheung A.C.K., Neitzel A.J., Chai C.S. Does Chatting with Chatbots Improve Language Learning Performance? A Meta-Analysis of Chatbot-Assisted Language Learning. Review of Educational Research. – 2025. B. 623–660. 630–635 B
2. Polakova P., Klimova B. Implementation of AI-Driven Technology into Education: A Pilot Study on the Use of Chatbots in Foreign Language Learning. Cogent Education. 2024. B.1–13. B. 7–8
3. Usmonov B. Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning // Education Journal. – 2024. B. 53–58. B 54–56
4. Shuppe L., Koval V., Sotska H., Trynus O., Melnyk A. Communicative Competence of Future Specialists in the Information and Digital Educational Environment. Amazonia Investiga. – 2024. P. 188–200. B190–195
5. Ergasheva Z.S. The Synergy of Digital Literacy and Communicative Competence in

English Language Education .Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan.
– 2025. P. 79–85.b. 80–83
6.Barakayeva S.K. Digital Transformation in Foreign Language Education: Modern Approaches and Technologies. International Journal of Scientific Research. – 2025. – 8 p.